zaharli ximiyaviy moddalar, shovqin va boshqalar ta'sir ko'rsatadi: bular kishi sog'ligining buzilishiga va ish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday noxush ta'sirotlar va ulardan kelib chiqadigan asoratlarning oldini olish uchun ishchilar sog'ligi, shuningdek sanitariya-texnika moslamalari va qurilmalarining holati, sanitariya-maishiy jihozlar, individual himoya vositalari sinchiklab tekshiriladi.

Kasbiy kasalliklar asosan to'rt guruhga: tashkiliy sabablar, gigiyenik sabablar, texnik va ruhiy fiziologik sabablarga bo'linishi mumkin.

Tashkiliy sabablar:

xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va yong'in xavfi bo'yicha yo'riqnomaning umuman o'tkazilmaganligi va sifatsiz o'tkazilganligi;

ish joylari, yo'lak va transport yo'llarining to'silib qolishi;

ish vaqtidan tashqari ishlash;

gigiyenik sabablar:

oqova suvlaridagi va havodagi zararli moddalarning yuqori kontsentratsiyasi mavjudligi;

yoritilganlikning yetarli emasligi yoki ularning noqulay o'rnatilganligi;

tsexlarda shovqinning me'yoridan ortiq bo'lishi;

har bir ishchiga to'g'ri kelishi kerak bo'lgan maydon va hajm bo'yicha ko'rilish me'yorlarining buzilishi;

Texnik sabablar:

uskuna va mexanizmlarning nosozligi;

mashinalarning xavfli joylarining to'silmaganligi;

og'ir va sermehnat ishlarning yetarli mexanizatsiyalashtirilmaganligi;

Ruhiy-fiziologik sabablar:

haddan ortiq charchash;

ishning og'irligi;

ishning monotonligi;

ishlab-chiqarish va mehnat intizomining buzilishi;

ishchining nosog'lomligi;

Kasb kasalliklari mehnat qobiliyatining pasayishiga, o'tkir va surinkali zaharlanishning avj olishiga, umuman kasalliklarning ko'payishiga, uzoq muddat o'tgandan keyin paydo bo'ladigan yomon asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

Charchashning tez yoki sekin ro'y berishi mehnatning xususiyatiga bog'liq:

Kishi bir tarzda turib muskullariga zo'r keladigan ish bajarganda ancha tez, bir tekisda ish bajarganda birmuncha sekin toliqadi.

Charchashning oldini olish uchun bekorchi harakatlarni bartaraf qilishga, ish o'rinlarining ratsional tashkil etilishiga, ish vaziyatiga va mashq qilishiga katta e'tibor berish kerak. Tikuvchining gavdasi stol chetidan 10-15 sm. narida turishi, tikayotgan bo'lak va ko'z orasidagi masofa taxminan 30-35 sm. bo'lishi kerak. Tirsagi stol sathida bo'lib, qo'l panjalari mashina platformasida turishi lozim, oyoq muskullari zo'riqishini kamaytirish uchun oyoq tagiga taglik qo'yiladi, mashina tepkisining oldingi tomoni poldan 220mm. baland turishi, tepki 20 gradus burchak ostida og'gan bo'lishi, oyoq qulay harakatlanishi, tepkinining oldingi chetidan stul o'rindig'ining orqa chetigacha bo'lgan oraliq (gorizontal bo'lib) 650 mm. dan oshmasligi lozim.

Ish joylarida mikroiklim omillari – harorat, nisbiy namlik, havoning tozaligi hamda atmosfera bosimi tashkil etadi. Bunday muhit kishi organizmiga salbiy ta'sir qilib, uni sovitib yoki qizitib boradi. Kishi organizmining me'yoriy harakati 36-37 gradus bo'ladi. Organizm o'zi uchun zarur bo'lgan haroratni ta'minlab turish qobiliyatiga ega.

Mehnat ta'limi fani bo'yicha xonalarga qo'yiladigan talablar.

1. Pedagogik talablar :

Mehnat ta'limi o'qituvchisi talabchan bo'lishi kerak, nafakat o'z fani ilmiy asoslarini mukammal bilishi, balki mehnat ko'nikmasi, malakasini puxta egallagan va uni o'quvchilarga mahorat bilan o'rgata oladigan bo'lishi kerak.

Mehnat reja temasiga hozirlik ko'rishda o'qituvchi xar bir temaning maqsad va vazifasi belgilaydi, temachalar umum mehnat bilim va ko'nikmalari mazmuni hamda darajasini aniqlaydi, o'quvchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlarning xarakter va miqdorini belgilaydi, asta sekin murakblashib borishini hisobga olish kerak .

Fanlararo aloqa o'rnatish uchun, yan'ni o'quvchilarning fizika, ximya, matematika, chizmachilik va boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanish uchun mehnat ta'lim o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilari bilan birgalikda tabiiy ilmiy fanlarining yigma – tematik planini ishlab chiqadi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi texnik xujjatlarni, zarur ko'rgazma qurollari, plakatlar, sxemalar, jadvallar, maketlar, modellar, buyumlarning na'munalarini tayyolaydi, jixozlarning texnikaviy xolatini, o'quvchilarning ish joylari va ish asboblari, shunindek o'quv ustaxona binoisini hamda ularning xavfsizlik texnikasi, sanatoriya talablariga mos jixozlanganligini tekshiradi.

Ilmiy talablar

Mehnat darslarida o'quvchilar tomonidan eganlagan texnikaviy bilim ma'lumotlar mehnat ko'nikma va malakalari to'la ma'noda ilmiy hamda politexnik harakatga ega bo'lishi kerak.

Ilmiy talablarni amalga oshirish o'quvchilarga ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, fannig yeng yutuqlarini xissobga olgan texnikaviy bilimlarni yetkazishdir. Ilmiy talablardan kelib chiqib o'quvchilar yeng yangi jixozlar, mexanizmlar, mashinalar, asboblari, moslamalar qarab chiqarishda ko'llaniladigan materiallarni yeng yangi markalari, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish hamda progressive texnologik jarayonlar bilan tanishishlari lozim.

Ilmiy talablarni bajarib bo'lib, mehnat o'qituvchisi o'quv xonalardagi ma'lumatlarga sof ilmiy terminlardan foydalanishi, fanda qabul qilingan ramziy belgilar, formulalar, o'lcham va hokazolarni qo'llash lozim.

Bundan tashqari mehnat o'qituvchisi darslarda bajarilayotgan mahsulotlarni tayorlash texnologiyasi va xarakat prinsplari hamda tuzilishini asoslash uchun o'quvchilarning asosiy fanlardan olgan bilimlardan foydalanish lozim.

Psixologik - fiziologik talablar :

Inson atrofni o'rab turgan olamni sezgi organlari orqali bilib oladi. Inson ta'lim jarayonida sezgi organlaridan ta'sirlanadi. Olingan ma'lumotlar fikrlanadi va katta yarim shar po'stlog'ida mustahkamlanadi. Bilim bu borliqning inson ongida aks ettirilgan va mustahkamlangan faktlari, umumlashmalari, qoidalari, qonunlari va hakazolardir. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilar turli xil fikrlarga ega bo'ladilar. Shu fikrlar psixik-fiziologik jarayon sifatida shunday mexanizimki, u ham malaka singari shartli refleks zanjiridan iborat.

Mehnat malakalarining bunday bo'linishi bir muncha shartli sanaladi, chunki ularning ko'pchiligi bir vaqtning o'zida ham harakatlantiruvchi, ham aqliy harakatni qo'shib olib borishni talab qiladi.

Estetik va texnik talablar :

O'quv ustaxonalarida va xizmat ko'rsatuvchi mehnat kabinetlaidagi mashg'ulotlarga muvofiq ravishda quyidagi tadbirlarni bajarishni nazarda tutadi.

Sanitariya-gigiena hamda o'quv-tarbiya talablariga to'la javob berish.

O'quv ustaxonalarida mashg'ulotlar o'tkazilayotgan vaqta o'qituvchi darslar o'tasida tanaffus o'tkazilishi lozim;

Bunda o'qituvchi xonani shamollatib, mehnat faoliyatini davom ettirish uchun normal sharoitni tiklash maqsadida bolalarga tashqariga chiqish va dam olishni taklif qiladi .

Xavfsizlik texnikasi:

O'quv xonalarida uskunalarni joylashtirishda yong'in xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish va sanoat sanitariyasining quyidagi talablariga rioya qilish lozim bo'ladi.

Xonalar inventar va uskunalar bilan ortiqcha to'ldirilib tashlanmasligi kerak. Dastgohlar, stanoklar, mashinalar hamda dastgoh qatorlari o'rtasidagi o'tish joylari belgilangan norma doirasida bo'lishi lozim.

Dastgohlar, stanoklar, mashinalar chekka qatori bilan ustaxona devorining o'rtasi 0,5 metrdan kam bo'lmasligi kerak.

Stanoklar oldida himoya ekrani va elektr blokirovka bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Xona(kabinet)da qo'l yuvish, ustki kiyim va korjomalarni saqlash uchun ham sharoit yaratilishi kerak .

Sanitar gigiyenik talablar:

Vazirlik tasarrufidagi umumta'lim maktablarda sanitar-gigiyenik talablar 2000 yil 26 dekabrda kuchga kirgan. Respublika Davlat sanitariya bosh shifokori B.Niyazmatov hamda Respublika xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari R.Ahliddinovlar tomonidan 2000 yil 6 dekabr va 1 noyabrda tasdiqlangan SanPin № 0102-00 sonli normativ xujjat asosida bajarilmoqda.

Mehnat ta'limi xonasining zaruriy xujjatlari.

1. Xona pasporti.
2. Mavjud jixozlarni pasporti.
3. Texnika xavfsizligi bo'yicha olib borilgan jurnal.
4. O'quvchilarning xonalardan foydalanish qoidalari.
5. O'quv metodik ta'minot ro'yxati.

Xonaning utqan o'quv yilida bajarilgan qism taxlili.

Xona va undagi jixozlar qaysi sinflar uchun mo'ljallangan.	Jixozlash va ta'mirlash uchun ni-ma qilinadi.	Qaysi turdagi didak-tik jixozlar sotib olinadi.	Eslatmalar

Xonaning o'quv metodik taminot bilan bezatish.

1. Ta minlanishi

- o'quv jixozlar bilan -o'quv metodik qo'llanmalar
- texnika vositalari majmuasi

2. Mavjud to'plami

- na'munaviy ishlar -testlar
- nazorat topshiriklar -tarqatma materiallari

3. Joyni maksimal tashkillashtirish

- o'qituvchining o'rni -o'quvchining o'rni

4. Doimiy va almashtiruvchi

- axboprotlar bo'yicha stendlar mavjudligi -ko'rgazmali qurollar
- amaliy bajarilishi koidalari -test bilan ishlash
- topshirilgan ishlar nazorati

Havfsizlik texnikasi

O'quv ustahonalrida uskunalarni joylashtirishda yong'in xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish va sanoat sanitariyasining quyidagi talablariga rioya qilish lozim bo'ladi.

Ustaxonalar inventar va uskunalar bilan ortiqcha to'ldirilib tashlanmasligi kerak. Dastgohlar, stanoklar, mashinalar hamda dastgoh qatorlari o'rtasidagi o'tish joylari belgilangan norma doirasida bo'lishi lozim.

Dastgohlar, stanoklar, mashinalar chekka qatori bilan ustaxona devorining o'rtasi 0,5 m. dan kam bo'lmasligi kerak.

Dastgohlar, stanoklar, mashinalar ish joyiga yaqin joylashtirishni hamda qo'shimcha vklyuchatelga ega bo'lishi lozim.

Stanoklar oldida ximoya ekrani va elektr blokirovka bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Ustaxona (kabinet) da qo'l yuvish, ustki kiyim va korjomalarni saqlash uchun ham sharoit yaratilishi kerak.

II- bob.Mehnat ta'limi darslarini pedagogik tenologiya asosida tashkil etish omillari.

2.1.Mehnat ta'limi darslarida Kasblar tasnifini, Kasblarda mehnat turlarining ta'rifi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar.

Kasb tanlashga yo'llash butun pedogoglar kollektivi tomonidan xal etiladigan umummaktab vazifasi xisoblanadi. SHu bilan birga, bu ishda mehnat ta'limi aloxida o'rinni egallashini esdan chiqarmaslik kerak. Bunga sabab shuki, mehnat ta'limining mazmuniga qator kasblar bilan uzviy ravishda tanishtirish kirishtirib yuboriladi va bu tanishtirish faqat nazariy jixatdangina emas, amaliy jixatdan xam olib boriladi. Ma'lumki, kasb to'g'risida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u xaqda to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin bo'ladi.

Kasb tanlashga yo'llash ishi butun mehnat ta'limi davomida olib boriladigan, lekin uning vazifalari o'zining turli bosqichlarida o'zgarib turadi.

V-VII sinflarda asosan kasb xaqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar qanday ommaviy ishchi kasblar borligi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari o'quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu xol o'qitishning shu davrida o'quvchilarni umumtexnikik tayyorlash vazifasiga tula mos keladi.

VI-sinfda va ayniqsa, VII sinfda kasb to'g'risida ma'lumot berish bilan bir qatorda kasbiy tarbiyalash ishlari xam olib boriladi. Bunga sabab shuki, VII sinfni bitirish arafasida o'quvchilar bo'lg'usi mehnat tayyorgarlikning profili (yo'nalishi)ni tanlab olishlari zarur. Xar bir profil ko'plab ommaviy ishchi kasblarni o'z ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashg'ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo'lgan kasblar bo'lishi (masalan, metallga ishlov berishga va yog'ochga ishlov berishga oid kasblar) yoki ular bilan xech qanday aloqador bo'lmagan kasblar (chunonchi, suvoqchilik, bo'yoqchilik va shu kabi qurilish kasblari) bo'lishi mumkin.

Mehnat tayyorgarligining profilini tanlashda ko'pincha munozarali vaziyatlar vujudga kelib,bu munozarada o'quvchilarning ota-onalari xam ishtirok

etishlari mumkin. Mehnat tayyorgarligining ayrim profillari go'yo e'tiborsizdk tuyulib, xech kim bu kasbni tanlashni xoxlamaydi. Boshqa profillarga esa, aksincha, keragidan ko'proq o'quvchilar qiziqib qolishadi.

Afsuski, maktablarning ish tajribasida shunday manzarani kuzatish mumkin; o'qituvchilar bu masalani o'quvchilarning o'zlashtirishlariga qarab xal etishga urinishadi, ya'ni a'lochi o'quvchilarga tanlash xuquqi beriladi yomon o'zlashtiruvchilar esa qolgan kasb turlaridan birortasini tanlashga majbur bo'lishadi.

Masalani bu tarzda xal etishlar jixatdan noto'g'ridir. Xayot yo'lini zo'rma-zo'raki tanlaganlaridan xech qanday yaxshilik kutib bo'lmaydi. SHubxasiz, a'lochi o'quvchilar rag'batlantirilaishga loyiqlar, biroq bu narsa boshqalarni kasb tanlash erkinligidan maxrum qilmasligi kerak.

SHunday xam bo'ladiki, mehnat tayyorgarligining profilini to'g'ri tanlagan o'quvchii keyinchalik o'ziga shu profil doirasidagi kasbni tanlaydi.

SHundan kelib chiqib, mehnat tayyorgarligining profilini tanlash ixtiyoriy bo'lishiga xarakat qilish lozim.

Bunga qanday erishish mumkin? Bu savolga javob berish uchun avvalo kasb tanlash erkinligini qanday tushunish lozimligini aniqlab olish zarur.

Bizning jamiyatimizda xoxlagan kasbni tanlash yo'lida siyosiy, ijtimoiy milliy va boshqa xil g'ovlar yo'q.

Ammo bu xuquqdan o'z o'rnida foydalana bilish va bunga o'rgatish darkor. Gap shundaki, u yoki bu kasbga bo'lgan talab uning e'tiboriga qarab emas, balki xalq xo'jaligining strukturasiga qarab aniqlanadi. SHuning uchun, xoxishimizdan qat'iy nazar, ob'yektiv tarzda kechuvchi ilmiy-texnik taraqqiyot bu planga o'z shartlarini kiritadi. Va biz yoshlarni xalq xo'jaligiga kerakli kasblarda ishlashga tayyorlashimiz kerak. Ravshanki, bu o'ta muxim vazifaning bajarilishini ta'minlash kasb tanlash erkinligi fuqarolik burchni tushunish bilan, mamlakatimizda barcha kasblar xam kerakli va faxri ekanligini anglash bilan uyg'unlashib ketishi lozim.

Kasb tanlash xaqidagi masalani faqat o'zining manfaatlari nuqtai nazaridan xal etmasligi kerak. Agar u siyosiy jixatdan yetuk bo'lsa, bunday qilmaydi xam. O'smirlar to'g'risida gap ketganda, ular shaxs sifatida endigina shakllanib kelayotganliklarini e'tiborga olish zarur.

SHu munosabat bilan mehnat ta'limiga aloxida umid bilan karaladi. Tekshirishlar o'quvchilarning ma'lum qismi ishchi bo'lib ishlashni xoxlamasliklarini ko'rsatadi. Buning sababi shundaki o'quvchilar ishchi kasblarning mazmuni to'g'risida to'g'ri tasvirga ega emaslar, jamiyatimizda ishchilar qanday e'zozlanishi yaxshi bilmaydilar. O'quvchilar bilan aynan mana shu yo'nalishda ish olib borish kerak, zero davlatimiz manfaatlari o'rta maktabni bitirganlarning ko'pchiligini moddiy ishlab chiqarish va axoliga xizmat ko'rsatish soxalariga jalb qilinishi taqozo etadi

Mazkur xolda, masala teng qimmatli ommaviy ishchi kasblariga taaluqli ekanligi ishni osonlashtiradi. Teng qimmatli kasblar deganda insonga xar tomonlama kamol topishi, moddiy faollik, jamiyatda o'z mavqega ega bo'lishga imkoniyatlar yaratishi jixatidan teng bo'lgan kasblar tushuniladi. SHu boisdan, agar ommaviy ishchi kasblari ichida yarimlari e'tiborsizdek tuyulsa, bu oddiy chalkashish bo'lib, mehnat o'qituvchisi xatolikni bartaraf etishi kerak. Buning uchun esa ommaviy ishchi kasblarida umumiy tomonlar ko'p ekanligini ta'kidlash kerak.

Amalda uchraydigan barcha kasblar bilan o'quvchilarni tanishtirib chiqishning imkoni yo'q, albatta. Lekin ko'pgina kasblar inson oldiga qator umumiy talablarni qo'yadi. O'smirlarni ana shu talablar bilan tanishtirib ularning kasblar xaqidagi tasavvurini kengaytirish kerak. Masalan, keyingi paytda jismoniy mehnatning ma'naviy saviyasi ortayotganligi ko'zatimokda. Akliy mehnat faoliyatiga quyiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Mehnat kollektivida o'zini tutishiga nisbatan xam yuqori talablar qo'yilmokda. SHuni xisobga olib, kasb tanlashga yo'llash ishini shunday tashkil kilish mumkinki, o'quvchilar faqat konkret kasblar to'g'risida tasavvur olibgina qolmasdan, mehnat faoliyatiga


nisbatan qo'yiladigan umumiy talab to'g'risida xam tasavvurga ega bo'layotganliklarini anglaydigan bo'lishsin.

Kasb tanlash juda muxim masala bo'lib, ko'pgina o'quvchilar uni mustaqil xal qila olmaydilar. Bu masalada ularga maktab yordam berishi kerak. Ko'pincha sinf raxbari xar bir o'quvchiga kartochka tutib, o'quvchining, u yoki bu o'quv predmetiga munosabati, kasbga bo'lgan qiziqishi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari, shaxsiy fazilatlari xaqida o'qituvchilar aytgan ma'lumotlarni shu kartochkaga yozib boradi. Bu esa o'quvchining nimaga qiziqishini aniqlashga imkon beradi. Agar o'quvchining qiziqishlari barqaror bo'lsa, sinf raxbari o'quvchida u tanlamoqchi bo'lgan kasb uchun zarur alomatlar bor yo'qligini aniqlashga kirishadi. O'quvchining sog'ligi u tanlagan kasb talablariga to'g'ri kelmaydigan xollar xam uchraydi. Bu masalani vrach xal qiladi. SHundan sung o'qituvchilar o'quvchining ota-onasi bilan suxbatlashib, bolani boshqa kasbga qiziqtirishga xarakat qiladilar. Lekin bu ishni xushmomilalik, extiyotlik bilan bajarish lozim, aks xolda o'smirning ko'ngli cho'kishi, o'zini to'laqonli odam emasdek xis etishi mumkin.

O'quvchilar o'zlariga kasb tanlayotganlarida o'qituvchilar o'z ta'sirini o'tkazishga xaddan tashqari intilmasliklari kerak. Bu o'rinda juda extiyot bo'lish va o'quvchilar ushbu kasbga chindan xam qiziqadilarmi yoki bu qiziqish tasodifiy qiziqishmi, aniqlab olish lozim.

Kasb tanlashga yo'llash ishini olib borishda maktabning real ish sharoitlarini xisobga olish darkor. Mamlakatimiz turli rayonlarining ishlab chiqarish bazasi bir xilda emas. Masalan, agar gap Qora dengizga, ya'ni kurort zonaga yakin joylashgan shaxar xaqida boradigan bo'lsa, o'quvchilarning ko'pchilik qismi kelgusida axoliga xizmat ko'rsatish soxasida ishlash kerakligini e'tiborga olishga to'g'ri keladi. Rayon ekonomikasi mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlarini ko'p jixatdan belgilab beradi. Biroq insonning individual xususiyatlari xam, odatda, qator kasb talablariga javob beradi, o'quvchilarning qiziqishlarini esa shakllantirish mumkin. SHunday qilib, kasb tanlashga yo'llash ishini davlatning u yoki bu

kasbga bo'lgan ehtiyojlarini xisobga olgan xolda va o'quvchilarning qiziqishlari xamda ishtiyoqlarini e'tiborga olgan xolda olib borish mumkin.



Kasb tanlashga yo'llash ishida VIII-IX sinflarida aloxida o'rinni egallaydi. Bunda bir tamondan kasb tanlashga yo'llash ishi bevosita mehnat darslarida davom etib, o'quvchilar o'zlari tanlagan mehnat tayyorgarligi profili tarkibiga kiruvchi kasblar to'g'risida tasavvur olishadi, ya'ni kasbga intilish go'yo «torayib boradi». Boshqa tomondan esa «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasb tanlash» maxsus predmetlarni o'rganish jarayonida o'quvchiilani xalq xo'jaligining asosiy kasblari va ixtisosliklari bilan tanishtirish yuzasidan sistemaga solingan kasb tanlashga yo'llash ishi boshlanadi. Mazkur predmetda mehnat darslarida, fan asoslari o'rganiladigan darslarda o'quvchilar kasblar to'g'risida olgan bilimlari umumlashtiriladi.

SHunday qilib, VIII-IX sinflarda ma'lum darajada qarama-qarshi vazifa qo'yiladi. O'quvchi kengaytirilgan mehnat ta'limini o'tib qator o'xshash kasblar elementlarini (masalan, metalga ishlov berish uchun slesarlik, tokarlik, frezerlik ishi) o'zlashtirib oladi. Buning natijasida u boshlang'ich kasb tayyorgarligini oladi va uni yuqori sinflarda davom ettirishi zarurdek tuyuladi. Ayni paytda o'quvchi oldida kasblar dunyosi birinchi marotaba sistemaga solingan xolda to'liq ochib

beriladi, go'yo ulardan xoxlaganiningni tanlab ol, deyilgandek bo'ladi. Kasb tanlash erkinligi ana shu ko'rinishdagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. X- sinfdan biror kasbni tanlash xaqida uzil- kesil qarorga kelish mumkin. Lekin bu bilan kasb tanlashga yo'nalish tugaydi yoki bo'shashtirib yuboriladi, deyish xato bo'ladi. Aksincha, bu ishda endi yanada ta'sirchan bo'lishi lozim, ammo uning maqsadi o'zgaradi, endi birinchi planni tanlagan kasbga muxabbat uyg'otish egallaydi. Kasb tanlashga yo'llash ishining butun mazmuni, formalari va metodlari ana shu maqsadga qaratiladi.

Yuqorida aytilganlardan, mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga ishi bir necha bosqichdan o'tib, bu bosqichlarning har birida o'z vazifalari xal etiladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Bunda kasb tanlashga yo'llash ishi, boshqa har qanday o'quv-tarbiya ishi kabi, ikki yoqlama jarayondan iborat bo'lib, bu jarayonda o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham teng darajada rol ajratiladi. SHuning uchun kasb tanlash ishiga nisbatan qo'yiladigan eng muxim talab-o'quvchilarning yuksak darajada aktiv bo'lishi lozimligidirki, bu aktivlik kasbiy tarbiya kasb tanlash negizlarini shakllantirish xisobiga ta'minlanadi. Mehnat o'qituvchilari profdiagnostika xamda profkonsultatsiyaga tayyorgarlik ko'rgan bo'lsalar va bu ishni o'z vaqtida o'tkazsalar, o'quvchilarning aktivligi ortadi.

2.2. Mehnat ta'limi darslarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish omillari.

O'qituvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlashga forma va metodlarni belgilab berdi. Ularning asosiylari quydagilardan iborat. Darslarda kasb tanlashga yo'llash. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni ular ustaxonalaridagi mashg'ulotlarida bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. CHunonchi, o'quvchilar yog'ochga ishlov berishni o'rganayotganlarida duradgor, yog'ochsoz, faner qoplovchi, yog'och kesuvchi, rom yasovchi, tokar, parmalovchi kasblari xaqida bilib oladilar. Bundan tashqari, o'qituvchi korxonalarda yo'g'ochga qo'lda ishlov berish bilan bo'g'liq ixtisosliklar o'rnini egallagan stanokchilar

kasblari xaqida xam gapirib beradilar. O`quvchilarga ustaxonalardagi mashg`ulotlarda metallga ishlov berishni o`rgatishda ular qator slesarlik va stanokchilar kasblari: tunukachi slesar, asbobsoz slesar, remontchi slesar, yiguvchi slesar, tokar, parmalovchi kasblari bilan tanishtiriladilar. Bundan tashqari, ayrim temalarni o`rganish davomida o`smirlarning metallga ishlov berish korxonalarida ishchi kasblar: termik ishlov beruvchi, prokatlovchi, po`lat erituvchi va xokazo kasblari to`g`risidagi tasavvurlarini kengaytirish mumkin. Elektr montaj ishlariga bagishlangan mashg`ulotlarda o`quvchilar elektromontyor, elektroslesar (remontchi elektromontyor, elektromontajchi slesar, o`rovchi elektromontyor va xakozo) kasblari bilan tanishadilar.

2.Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo`llash. Odatda, ekskursiyalarda o`quvchilarni o`quv programmasi doirasidan chiquvchi material bilan tanishtirishga qulay sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llash uchun foydalanish mumkin. Masalan, o`quvchilar metallga va yog`ochga ishlov beriladigan mexanika tsexlariga borishganda uskunalarning ko`p gruppasi va tiplarni ko`radilar. SHuning uchun o`qituvchiga ana shu uskunalarda ishlovchi ishchi kasblari xaqida gapirib berish tavsiya etiladi. Agar ishchilarning o`zlari o`z ishlari, tayyorlaydigan maxsulotlari xaqida gapirib bersalar, o`quvchilar bu kasblar to`g`risida ko`proq tasavvurga ega bo`lishadi.

3. To`garak mashg`ulotlarida kasb tanlashga yo`llash. To`garak mashg`ulotlarida o`quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko`proq imkoniyatlar vujudga keladi. Agar o`qituvchi o`quvchining ishchi kasblardan biriga, masalan, yog`ochga, metallga ishlov berishga moyilligi borligini sezsa u o`quvchi`i bilan ish olib borib, uning bilim va o`quvlarini chuqurlashtirishi, unga yoqadigan kasbga nisbatan qiziqish uyg`otishi zarur.

4.Ishlab chiqarish novatorlari va maktabni bitirgandan so`ng moddiy ishlab chiqarish soxasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar. Odatda, mazkur maktabni bitirgandan keyin sanoat korxonalarida ishlayotgan kishilarning chiqishlari o`quvchilarda katta taassurot qoldiradi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilar tanishadigan kasblar ancha ko'p. SHuning uchun, o'qituvchilar o'quvchilarga o'z kasbi xaqida xikoya qilib beradigan ishlab chiqarish novatorlarini topishda qiynalishmaydi. Ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda fan asoslariga doir bilimlardan foydalanish to'g'risida ishlab chiqarish ilg'orlari aytgan gaplar, ayniqsa qimmatlidir. Umumta'lim bilimlariga ega bo'lmasdan xozirgi zamon ishlab chiqarishining ilg'or ishchisi bo'lish mumkin emasligini o'quvchilar tushunib olishadi.

Ishlab chiqarish novatorlari bilan uchrashuvlar ko'pincha tantanali vaziyatda o'tadi. Bolalar mexmonlarga atab sovg'alar tayyorlashda, yaxshi o'qiymiz deb majburiyatlar olishadi. Bunday tadbirlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

5.Xar xil madaniy ommaviy tadbirlar o'tkazish. Kasb tanlashga yo'llash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi xar xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum. Masalan, «Kasb xaqida kim ko'proq biladi» temasiga bag'ishlab konkurslar o'tkazish, «Kasblar dunyosida» nomli og'zaki jurnallar chiqarish, «Kasb tanlashda shaxsiy va jamoat fikri» temasi bo'yicha munozaralar uyushtirish, tegishli adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil qilish, kitob va kinofilmlarni muxokama qilish shular jumlasidandir. Mazkur tadbirlarning barchasi ustaxonalarda amalga oshirilishi mumkin.

6.Kasblarni chuqur o'rganish. O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari, u yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilar qiziqishlariga qarab gruppalariga yoki klublarga birlashtiriladilar. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy formalari qo'llaniladi. O'quvchilar o'z kuchi bilan muzey yaratadilar, referatlar yozadilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Bularning barchasi o'qituvchiga muayyan kasb insonga qanday talablar qo'yishini kengroq tushuntirib berishga o'quvchilarning kasb tanlash negizlarini tushunib olishlarida ko'maklashishga imkon beradi. Agar o'qituvchi o'quvchidan muayyan kasbga qat'iy qiziqish uyg'ongani va

o'quvchining sog'ligi shu kasb talablariga javob berishini payqasa, u tegishlicha ish olib borib, o'smirning xoxishi ro'yobga chiqishi uchun yordam bera boshlaydi.

VIII-IX sinf o'quvchilarini kasbga yo'llash jarayonida o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarini birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustaxkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarning turli klublar va qiziqishlar (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha va to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Darsdan tashqari vaqtda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi quyidagi maqsadlarda:

- mehnatga muxabbat, mehnat axliga xurmat xislarini singdirish, unumli mehnatga ijtimoiy mayllarni shakllantirish;

- barqaror kasbiy qiziqishlar va mayllar shakllantirish va rivojlantirish;

- mutaxassislikni, kasbni tanlash va uni o'zlashtirish yo'llarini tanlash maqsadida o'tkaziladi.

Texnika to'garaklaridagi mashg'ulotlarda olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishi mazmuni o'quvchilarni to'garak yo'nalishiga muvofik kasblar, predmetlar va mehnat texnologiyasi bilan, ishchi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, mazkur kasbga oid mutaxassislar tayyorlash shartlari bilan, ijodiy ish va ana shu kasbdagi mehnatchilarning kasbiy o'sish istiqbollari bilan, Butunjaxon ixtirochilar va ritsionalizatorlar jamiyati o'quvchilar tashkilotlarida, texnik ijodkorlik to'garaklarida, xalq xo'jaligi muammolarini ijodiy xal qilish masalalari bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, mashg'ulotlar chogida o'quvchilarda umumtexnikaviy, umummehnat va maxsus bilimlar xamda ko'nikmalar shakllanadi.

O'quvchilar ishlab chiqarishda ommalashgan asboblardan va moslamalar bilan ish ko'radilar, ba'zan esa ularni o'zlari xam tayyorlaydilar. O'quvchilarning texnik

ijodkorlik to'garaklaridagi faoliyati ko'pgina xollarda ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muayyan buyumlarni tayyorlash bilan xam bog'liqdir.

Yosh avlodni kasb tanlashga yo'naltirish davlat sistemasida maktab yetakchi bo'g'in xisoblanadi.

Maktab o'quvchilarda kasbga qiziqish uyg'otishda va bitirib chiqaruvchilarni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashda asosiy tayanch nuqtasidir.

Qiziqish, moyillik, qobiliyat, politexnik bilim va mahorat kabi shaxsiy fazilatlar o'quvchilarni kasbni o'zlari tanlashiga faol undovchi sababdir.

Mehnatning xozirgi turlari g'oyat ko'p va xilma-xil bo'lgan, kuch ishlatish imkoniyatlari juda xam kengayib borayotgan xozirgi sharoitda kasb maorifini (kasbiy axborotni, kasbiy targ'ibotni, kasbiy tashviqotni) to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, yo'shlarning to'g'ri kasb tanlashi ancha qiyindir.

Kasblarning xilma-xil munosabati bilan qandaydir bir kasbni yoki xalq xo'jaligi tarmoqlarini maktabda sinflar bo'yicha targ'ib qilishni tavsiya etish juda xam qiyin va bu narsa maqsadga muvofiq xam bo'lmasa kerak. Bunda kasbni targ'ib qilishning ba'zi yo'nalishlarinigina qayd qilib o'tish mumkin. Bu - mehnat faoliyatining sevimli turiga muxabbatni shakllantirish, boshda oddiy kasblar bilan, so'ngra esa o'quvchilarning yo'shi va bilimlariga qarab, mamiakat xalq xo'jaligi va konkret mintaqaning yaqin 10-15 yil mobaynida kadrlarga bo'lgan talab-extiyojini xisobga olib, birmuncha murakkab kasblar bilan tanishtirishdir. Targ'ibot mazmun jixatidan chuqur bo'lishi, xissiy ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lishi, yo'shlarning ko'z o'ngida unchalik ommabop bo'lmagan kasblar (xizmat ko'rsatish, kommunal xo'jalik, yengil va oziq-ovqat sanoati soxasiga oid kasblar, ba'zi qishloq xo'jalik mutaxassisliklari) nufuzini oshirishi xam muximdir.

Maktab o'quvchilariga fan asoslaridan mustaxkam bilim berishi, ularda dunyoqarashni xamda ish xarakat va xulq-atvor umuminsoniy yo'nalishlarni shakllantirishi lozim.

Xo'sh, maktab o'quvchilarining kasb tanlashdagi xatolari nimalardan iborat, bulardan eng tipiklari qanday?

1.O'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql-farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi. Bunday qoyil qolish beixtiyor sevimli qaxramon shug'ullanayotgan ishiga xam o'tadi. Binobarin, O'smir unga taqlid qilish yo'lidagi muddaosida qandaydir axloqiy xislatlardagina unga o'xshash bo'lishi emas, balki o'zini xam ana shu kasbga bag'ishlashni istaydi. Bunda o'quvchi o'sha ma'naviy fazilatlar boshqa ishda xam namoyon bo'lishi mumkinligi xaqida o'ziga ko'pincha xisob bermaydi.

2.O'quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish. O'smir maktabdagi fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asoslanib, ko'pincha kelgusi kasbini belgilaydi. O'quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo'lsa, bu u adabiyotni amaliy jixatdan qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasa adabiyot mening sevgan fanim deydi. U kasbni emas, balki bilimining o'zini qiziqtiruvchi soxasinigina tanlaydi, bu soxada nimani istayotganini va nima qilishi mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3.Kasbning tashqi jixati bilangina qiziqish. O'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu - mutlaqo tabiiy xol, albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jixatlarinigina ko'rib, shularga xos bo'lgan qiyinchiliklarini bilmaydilar.

4.Mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarda, ayniqsa ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari xaqidagi noto'g'ri tasavvurning mavjudligi navbatdagi kamchilikdir. Yo'shlarimiz yengil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy xislat qobiliyatlarni,, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga xarakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblar ijodiy, aqliy jixatdan o'sish uchun yetarli darajada imkoniyat bermaydi, deb ana shunday kasblarni ko'pincha

e'tiborsiz qoldiradilar. Kiyim tikishda zo'r qobiliyat ko'rsatayotgan qiz qanday bo'lmasin shifokor bo'lishni orzu qilishini, dastgoxda yuksak mahorat bilan ishlayotgan yigit tokarlik kasbi xaqida eshitishni xam istamayotganligi singari faktlarni ayni shu narsa bilan izoxlash mumkin.

5.O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik. O'quvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq xamma joyda uning olidida barcha yo'llar ochiq ekanini, xammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarni o'qilish lozimligini unga ta'kidlaydilar. SHu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini xisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

6.O'quvchilarning u yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar pisand qilmaslik, masalan, mayda ish (soat zavodida, aniq asboblari zavodida va shu kabi joylarda) bilan bog'liq kasblar uchun ko'rish organining zaifligi, transportda ishlash uchun to'g'ri kelmaydigan daltonizm xastaligi, O'smir geolog bo'lishni xoxlasa xam lekin yuragining zaif bo'lishi, radiolokatsiyada ishlashni tanlagan yo'shlarning eshitish borasidagi kamchiligi, dengizda so'zish va yerdagi transportning ba'zi turlarini va shu kabilar ana shunday kamchiliklar jumlasidandir.

7.O'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash. O'quvchi o'z istaklarini ro'yobga chiqarishni o'ylab xam ko'rmagan bir paytda uning sinfdosh o'rtoqlari kasb tanlash xaqida fikr yuritadilar. O'quvchi bunda o'rtoqlaridan ajralib qolishni xoxlamaydi, chunki ularning orzulari yorqin, jozibalidir. SHu tariqa o'quvchi

-V-IX sinflarning o'quvchilarida kasb tanlash masalasi jiddiy va ma'suliyatli munosabatda bo'lishni tarbiyalash;

-o'smirlarning qiziqishlarini va qobiliyatlarini, fiziologik va psixologik xususiyatlarini, xamda imkoniyatlarini o'rganish xar bir o'quvchi o'z xayotini bag'ishlashni istaydigan faoliyat soxasini belgilab olishda unga yordamlashish;


Kasbga yo`naltirish muammosini shaxsning faqat qiziqishlarini yoki tipologik xususiyatlarini xisobga olib xal etish yo`lidagi urinishlarni xam noto`g`ri urinishlar, deb xisoblash kerak. Masalan, qiziqishlar shaxsning maqsadini ifodalasa xam, lekin uning kasbiy jixatdan muxim xususiyatlari va xislatlarini to`liq aks ettirmaydi. Bundan tashqari , qiziqishlar tez-tez o`zgarib turadi va xamma vaqt xam yetarli darajada asoslangan bo`lmaydi. SHu narsani xam yoddan chiqarmaslik kerakki, yo`shlarning kasbiy qiziqishlari jamiyatning talab-extiyojlariga mos bo`lib tushmasligi mumkin.

Yuqorida aytilganlarning xammasini kasbga yo`naltirish ishida odamning shaxsiy xususiyatlarini o`rganishning rolini kamsitishdir, deb talqin qilish yaramaydi. Aksincha, odamning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olmay turib, shaxsning sobitqadam shakllanishiga erishib bo`lmaydi. O`quvchiilarning shaxs xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakterini, jismoniy kamolotini bilish o`quvchiilarni faoliyatning qaysi bir turiga tayyorlash maqsadga muvofiq ekanini belgilash uchun zarur. Bunda odam o`zining tabiiy xususiyatlari bilan belgilangan ezgu kasbni qidirish vazifasi o`rtaga qo`yilayotgani yo`q, balki tarkib topgan psixologik xususiyatlar va jismoniy belgilar bo`yicha shu odam uchun birmuncha maqsadga muvofiq bo`lgan kasbiy faoliyatning umumiy xakteri yoki kasblar tipigina aniqlanadi. SHaxsni o`rganish xaddan tashqari bir tomonlama tusga ega bo`lmasligi lozim, chunki bu xol uning kasbga yaroqliligiga baho berishda va uning kamol topishi yo`nalishini belgilashda noto`g`ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. SHunday qilib, maktabdagi butun ta`lim va tarbiya sistemasi o`quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashni ta`minlaydi.

O`quvchilarning ko`pchiligi tikuvchilik qilishga, mohir xunarmandlarga o`xshab chiroyli va to`kis buyumlar yasashga intiladilar. Bu boradagi istaklarini ro`yobga chiqarishga intilish tuyg`usi o`quvchilarni maktab ustaxonasi bag`riga tortib turadi. Tanaffus paytlarida va o`quv mashg`ulotlari nihoyasiga yetganidan so`ng, ular katta yoshdagilar qanday ishlayotganligi, nimalar yasayotganligini bilishga harakat qiladilar.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, o'qituvchi faoliyatidagi dars mashg'uloti olib borish usullaridagi bir xillik o'quvchilarning kasb tanlashni o'rgatishga yo'llashga oid ishlarga bo'lgan soxalarini susaytiradi. Buning oldini olish maqsadida darsda o'quvchilar faoliyatining xilma-xilligini ta'minlash ko'p o'quv predmetlari qatori mehnat ta'limining ham diqqat markazidagi asosiy vazifalaridan bo'lib, hozirgi paytda o'quvchilarning mehnat ta'limi darslariga qiziqishini orttirishda faol, noan'anaviy usullaridan keng foydalanish juda ham zarur bo'lib qoldi.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlarida ilg'or, tajribali, ijodkor o'qituvchilar zamonaviy dars talablariga mos keladigan seminar, konferentsiya, viktorina, test, teatrlashgan dars kabi turli noan'anaviy darslardan o'z o'rnida foydalanib kelinmoqda.



Mehnat ta'limida konferentsiya darsi. Ta'limda noan'anaviy usulda o'quv amaliyot usullarini o'tkazish o'quvchilarning ijodkorligini, izlanuvchanligi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday ishlardan biri sifatida 6 sinf o'quvchilari uchun berilgan dasturning ayrim bo'limlaridagi mavzular o'rganib bo'lingach, umumlashtirish-takrorlash mashg'ulotlarini zamonaviy (noan'anaviy) dars sifatida konferentsiya darsi qilib o'tkazishni tavsiya qilish mumkin.

Masalan, 9 sinf o'quvchilari kasb tanlashni o'rganish darsida "Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik" mavzusi o'rganiladi. Bu mavzuni kasbim-faxrim mavzusi bilan bog'lab, texnologik bilim va ko'nikmalar egallash yuzasidan olingan bilimlarni kengaytirish va atroflicha o'rganish uchun konferentsiya darsi tashkil qilish mumkin. Dars davomida o'quvchilar pedagogik va psixologik tomondan kuzatib boriladi. Avval o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlarini hisobga olib, ularni uch guruhga bo'lib olinadi:

1-guruh: konstruktorlar;

2-guruh: texnologlar;

3-guruh; tadbirkorlar.

O'qituvchi konferentsiya darsi bo'lishidan oldin guruhlariga qanday manbalardan foydalanish va fikr yuritish yo'nalishlari haqida ko'rsatmalar beradi. Bunda o'qituvchi guruhdan tashqari manbalar: adabiyotlar, radioeshittirish, teleko'rsatuv va matbuot materiallari hamda mahalliy dalillardan foydalanishni o'quvchilarga tavsiya etadi. O'quvchilar shular asosida tayyorgarlik ko'rib, rang-barang materiallarni yig'ib keladilar.

Konferentsiya darsining rejasi quyidagichyaa bo'lishi mumkin:

Darsning maqsadi:

- a) o'quvchilarning kasb tanlash haqidagi bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, kengaytirish va ularga kasb tanlashni o'rgatish;
- b) o'quvchilarni qo'l mehnatini qadrlashga, tejamkorlikka, tadbirkorlikka va ishbilarmonlikka o'rgatish;

v) o'quvchilarning konstruktorlik, texnologik va sotuvchilik sohalariga oid bilim va ko'nikmalarlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

Konferentsiya quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar!

Bugungi kasbim-faxrim mavzusiga bag'ishlangan anjumanimizni boshlaymiz. Anjumanda yosh konstruktorlar, texnologlar, tadbirkorlar qatnashmoqda. So'z yosh konstruktorlarga, marhamat!

1-konstruktor: Ma'lumki, chizmalar asosiy ko'rinish materiallari hisoblanadi. CHizma texnikaning tilidir. CHizmalar esa biz yashab turgan texnikada va texnologik jarayonlarda ishlatiladi. Ularning juda ko'plab turlari mavjud.

2-konstruktor: CHizmalar tuzilishiga qarab oddiy chizma, texnologik xarita va shu kabi turlarga bo'linadi.

Buyum tayyorlash uchun asosan texnologik xaritalardan foydalaniladi.

3-konstruktor: Buyum tayyorlash uchun asosan texnologik xaritalardan foydalaniladi. Buyumlarni tayyorlash texnologik xaritadan foydalanib bajarilishi mumkin.

Boshlovchi: Endi navbatni yosh texnologlarga beramiz. Marhamat!

1-texnolog: Buyum tayyorlash **jarayonida Texnologiya asosida faoliyat turlari qanday bosqichlarni qamrab olishi xaqida ma'lumotlar beradi.** Odamlarning paydo bo'lishi bilan chizmalardan foydalana boshlangani, ma'lum bir texnologiya asosida ularning o'zlari turli xil mehant va ov qurollari yasaganliklari, ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan buyumlar tayyorlay boshlaganliklari xaqida ma'lumot beradi.

2-texnolog: **Gazlama** materiallari bizning faoliyatimizda asosiy xom- ashyo bo'lib hisoblanishini tushuntiradi. Buyumlar tayyorlashda **Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar** bilan tanishtiradi.

3-texnolog: **Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi bilan tanishtiradi.** Ishlarni amalga oshirish uchun texnologlar oldida tayyor va yarim

tayyor qismlar hamda tayyorlangan detal bo'ladi. Ushbu detallar yordamida ish ketma-ketligini tushuntiradi.

Boshlovchi: Mana, biz yuqorida yosh konstruktor va texnologlarning fikrlari, ishlari bilan tanishdik. Endi navbatni yosh tadbirkorlarga bersak. Ular o'zlarining tajribalaridan, bozorning sir-asrorlaridan so'zlab beradilar. Marhamat!

1-tadbirkor: Hozirgi davrda tadbirkorlik faoliyati har bir sohaga kirib kelmoqda. Bizning tadbirkorlik kasbi ham tikuvchilik kasbi singari ommalashmoqda. Inson yaralibdiki, hayotning har bir kunida bir necha marta savdo sotiq va mol ayriboshlash, iqtisod bilan bog'liq masalalarga, muammolarga duch keladi.

Tadbirkorlik nima? Tadbirkorlik ishlab chiqarishni tashkil qilish, yo'lga qo'yish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sota bilish, tushgan pulni joy-joyiga sarflay olishdir. Tadbirkor ishlab chiqarish va tijoratning barcha zarur motivlvridan boylik yaratish uchun foydalanadigan odamdir.

2-tadbirkor: Tikilgan buyumlarini tayyorlash uchun qancha xom -ashyo ketishini, ularga ketgan sarf-harajatni, olinadigan foyda hisoblarini aniqlaymiz. Buyumlarni tannarx asosida sotish uchun baho belgilaymiz. Albatta, baho belgilash bozorni o'rganish, undagi talab va takliflar natijasida amalga oshiriladi. Masalan, «Molniya» tasmani asosiy bo'lak teskarisiga qo'yib, asosiy bo'lak o'ngidan bostirib tikiladi buning uchun ko'rsatib o'tgan molniyani qaerdan olish va foydalanishimiz mumkin. Iqtisod bilan ish yuritishimiz esa halol mehnat evaziga daromad olish va uni aql-idrok, tejamkorlik bilan zaruriy joylarga ishlatishdir. Isrof –iqtisod va tejamkorlikning aksi bo'lib, o'rinsiz, foydasiz va xayrsiz ishlarga pul va mol sarf qilishdir. “Sen agar isrof etishini tashlading, ul zamon davlat etagin ushlading”, -deb bejiz aytilmagan.

3-tadbirkor: (Savdo rastasi oldida turib sotuvchilik kasbi haqida gapirib beradi):

Savdo sohasida juda to'g'rilik va halollik bilan ish ko'rish talab qilinadi. Savdoda sotuvchiga shirinso'zlik, xushmuomalalik, hozirjavoblik, istarasi issiqlik, so'zamollik kabi umumisoniy xislatlar xos bo'lishi kerak.

Boshlovchi: Mana, hurmatli anjumanimiz qantashchilari, yuqoridagi kasb egalarining fikr mulohazalari va tajribalari bilan tanishdik.

Taqilmalarni tikishda nimalarga e'tibor berish, ularni qanday tejab ishlatish keraklini bilib oldik.

Yuqorida uchala kasb ham bir-biriga bog'liqligi, konstruktor tadbirkorsiz, tadbirkor texnologsiz o'z faoliyatini yurita olmasligining guvohi bo'ldik.

SHu tarzda darsda aytilgan fikrlar umumlashtiriladi. Kasblarni ajralmas o'zviy aloqadorligi ularning faoliyatlari misolida ko'rsatib beriladi.

Mehnat ta'limiga oid mashg'ulotlarda konferentsiya darsini tashkil etish va o'tkazish jarayonida quyidagi pedagogik vazifalar hal etiladi:

1. O'quvchilarning mehnat ta'limiga oid nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.
2. Kasb xususiyatini farqlay bilish orqali ularni texnologik bilim va ko'nikmalarlarni to'g'ri egallashga yo'naltirish.
3. Fanlararo aloqalarni uzviy o'rgatish.
4. Unumli mehnat, yuqori samaradorlikka erishishni o'rgatish.
5. Ekologik, iqtisodiy tarbiya berish.
6. Mulohaza yuritish, fikrlash, xulosa chiqara olish malakalarini hosil qilishga o'rgatish.
7. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.
8. O'quvchilarda bilish imkoniyatlarining cheksizligiga, o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qildirish.

Konferentsiya darsi jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etadilar.

Yuqoridagi dars jarayonida ishtirok etgan uch guruh o'quvchilari bir-birlari bilan fikr almashishlari natijasida texnologik bilim va ko'nikmalarga qiziqishlari ortadi.

O'quvchilar konferentsiya darsida o'zlari yoqtirgan kasb kishilari qiyofasi va holatiga kirib, ziyraklik, chaqqonlik, hozirjavoblik, bardoshlilik, tadbirkorlik vaziyatlari va ishbilarmonlik xislatini namoyish qiladilar. Bunday darslar o'quvchining kichik-kichik hajmdagi ilmiy ishlar qilish uchun bosilgan dastlabki qadamlari ham bo'lishi mumkin.

Bunday konferentsiya darslari boshqa guruhlarda o'tkazilsa ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Komp'yuter texnologiyalari va interaktiv usullardan foydalanish.

Texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitishda o'quvchilarning ijodiy-amaliy ishlarini tashkil etishning samarali usullaridan biri ijodiy masalalardan foydalanishdir. Bu o'quvchilarning fanlardan olgan nazariy bilimlarini mushohada qilish orqali amalda qo'llashlariga, texnologik bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, ijodiy masalalar tuzilishiga ko'ra o'ziga xos murakkabliklarga ega. SHu sababli avvalo, ijodiy masalalarning qanday ko'rinishlarda bo'lishi va ulardan foydalanish usullarini puxta o'rganib olish zarur. Adabiyotlardan ijodiy ko'rinishdagi, jumladan, ijodiy-ixtirochilik ko'rinishidagi texnik masalalarni yechishning ko'plab usullari haqida ma'lumotlarni olish mumkin. SHuning uchun, muayyan ehtiyojni, mahalliy va milliy sharoitni hisobga olgan holda, fan va texnika taraqqiyotiga mos keladigan ijodiy masalalar tuzish hamda ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda xalq xo'jaligining istalgan sohasida ishni yuritish va boshqarishni kompyuterlarsiz tasavvur qilish qiyin. XXI asr savodxon kishisi bo'lishi uchun kompyuter savodxon bo'lishi, axborot texnologiyalarini puxta egallamog'i lozim. Har bir mutaxassis, u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, o'z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotni ishlab chiqaruvchi vositalar va ularni ishlatish uslubiyotini bilishi va ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Ta'lim tizimi butunlay yangi mazmun kasb etayotgan hozirgi davrda har bir fanning o'qitilishi mazmunini qayta tahlildan o'tkazish, ta'lim bosqichlari bo'yicha uning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash asosida tubdan isloh qilish va amaliy hayotga bog'lash nuqtai nazaridan yondashuv zarur bo'ladi.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning barchasi bir maqsadga, ya'ni har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Jamiyat rivoji va taraqqiyotini mustahkamlovchi o'quvchi bugungi kun yosh avlodlaridir. Iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni qo'llab-quvatlash hamda ularni qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik jamoaning vazifasidir. O'qitish saviyasini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, masofadan o'qitish tizimini tashkil qilish, buning uchun mavjud informatsion tizimlarni takomillashtirib yangilari bilan ta'minlash va talabalarni elektron pochta, internet tizimlaridan keng ko'lamda foydalanishni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar – bu Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan asosiy pedagogik usuldir. Bu usulni qo'llash uchun quyidagi muammolarni hal qilish lozim:

1. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlari uchun alohida sharoitlar yaratish.
2. Darslarda o'quvchilarning faolligini orttirish, buning uchun ko'proq interaktiv uslublardan foydalanish.
3. Ta'lim jaryonida xar bir o'quvchiga mehnat ta'limining aniq maqsadlarini tushuntirib va shu yo'l bilan ularning shu maqsadga ongli ravishda intilishlarini ta'minlash.
4. Pedagogik jarayonni an'anaviy reproduktiv yondoshuvdan farq qiluvchi xamkorlik pedagogikasi talablari asosida tashkil etish.
5. Bilim olishda faqat darslargagina tayanmasdan, boshqa manbalardan ham unumli foydalanishga erishish.
6. Yangi axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish.

7. O'quvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalarini aniqlashda ularning muloqot qilish qobiliyatlarini hisobga olish.
8. Ta'lim - jarayoni boshida o'quvchilarning dastlabki darajasini aniqlash hamda har bir o'quvchiga o'quvchi nuqtai nazardan yondoshish, uning rivojlanish dinamikasini qayd qilib, tahlil etib borish.
9. Ta'lim jarayonida ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda tarixiy an'analarga, xalqning boy merosiga tayangan holda umuminsoniy qadriyatlarni hisobga olgan holda ish yuritish.
10. Ta'lim jarayonida noan'anaviy dars shakllaridan (musobaqa, konkurs, amaliy o'yinlar, ring musobaqalari va h.k.) samarali foydalanish.
11. Dars jarayonida o'quvchini o'qitish emas, ko'proq o'qishga, bilim olishga o'rgatish.
12. Reprodukativ bilim - usullaridan evristik uslublarga o'tish, olinayotgan natijalarni tinglovchining o'zi «sub'yektiv ixtiro» qilishiga erishish.
13. Ilg'or pedagogik texnologiyalar xuddi ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologiyalar kabi barcha mutaxassislar tomonidan takrorlanuvchan va pirovardida bir xil natijaga erishishni kafolatlaydigan uslub bo'lmog'i lozim.

O'quv tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi ham o'qituvchilardan chinakam ijodkorlikni talab qiladi. O'qituvchi an'anaviy dars usullaridan chekinib yangi-yangi usullardan foydalanadi.

Maktablar o'qituvchilari mehnat ta'limida insert, klaster, kichik guruhlarda o'qish, aqliy xujum, sinetika, morfologiya, tajriba va xatolar usuli, ixtiro masalalarini yechish algoritmi, esse kabi interaktiv metodlarni o'qitish jarayonida qo'llashlari lozim.

Hozirgi vaqtlarda o'qitish jarayonida trening darslari qo'llanilayapti. "Trening" so'zi trenirovka – mashq qilish so'zidan olingan bo'lib, yangi ma'lumotlarni amalda qo'llanishi o'rganish degan ma'noni anglatadi.

Trening darslari qayta aloqa asosida olib boriladi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini bilib, bilimlarini yanada boyitib o'zlariga qaytarib

beradi. Ya'ni, dars davomida faqat o'qituvchi ishlamasdan o'quvchilarga tengma-teng ishlaydilar.

“Qora quti” metodi. Bu metod asosida muammoni hal qilish aniq vaziyatlarni tahlil qilish orqali amalga oshirish yotadi. Bu vaziyatlar shunday qilib tanlanadiki, ularni tahlil qilish davomida har bir qatnashchi beixtiyor defektlarni paydo bo'lish masalalariga tegib o'tsin. Bunga qatnashchilar maxsus, maqsadga yo'naltirilgan savollar orqali rag'batlantiriladi. Masalan: "Bunday vaziyat nimaga olib kelishi mumkin?", yoki "Bu holda mehnat operatsiyasi qanday o'tadi?" va hokazo. "Qora quti" metodining mohiyati shundaki, muammolarning paydo bo'lish sabablari aylanma yo'l bilan aniqlanganday bo'ladi. Bunda odamlarning ijodiy tashabbuskorligiga yo'l ochiladi.

2.3. Dars mashg'ulotini o'tish texnologiyasi

Mavzu: Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik.

Vaqti: 1 soat; O'quvchilar soni 29 nafar.	
Reja	1. Kasb tanlashda asosiy shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish. 2. Kasb tanlashdagi onglilik. 3. Kasb tanlashdagi mustaqillik. 4. Kasb tanlashda katta yoshlilar bilan maslahatlashish. 5. Mehnat faoliyati davomida bilimni takomillashtirish va qobiliyatni rivojlantirib borishga ehtiyoj.
Ta'limiy maqsad	-o'quvchilarda kasb tanlashda asosiy shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish to'g'risida ma'lumotlar berish; -kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik haqida tushunchalar berish; -mehnat faoliyati davomida bilimni takomillashtirish va qobiliyatni rivojlantirib borishga ehtiyoj to'g'risida ma'lumotlar berish.
Tarbiyaviy maqsad	-o'quvchilarda mehnat kishilariga hurmat, kasblarga qiziqish tuyg'ularini shakllantirish; -o'quvchilarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhini shakllantirish.
Rivojlantiruvchi	-turli kasb kishilarining har xil sharoitda ishlashini anglab

maqsad	yetish; -kasb tanlashni katta yoshdagilardan maslahat olgan holda va ongli, mustaqil ravishda hal etishga intilish.
Pedagogik vazifalar	-o'quvchilarga shart-sharoitlar va vaziyatlarni e'tiborga olgan holda kasb tanlash lozimligini uqdirish; -kasb tanlashga ongli va mustaqil yondoshish zarurlini uqdirish.
O'quv faoliyatining natijalari	-mazkur darsdan so'ng o'quvchi kasb tanlashda asosiy shart-sharoitlarni e'tiborga olish kerakligini bilib oladi; -kasb tanlashda katta yoshlilar bilan maslahatlashish kerakligini tushunib yetadi; -kasb tanlashga ongli va mustaqil yondoshish kerakligini bilib oladi; -mehnat faoliyati davomida kishi o'z bilimini takomillashtirib borishi va qobiliyatini rivojlantirib borishi kerakligini anglab yetadi.
O'qitish uslubi va texnologiyasi	Vizual amaliy mashg'ulot, test –so'rov, klaster, muammoli vaziyat va ATdan foydalaniladi.
O'qitish vositalari	Dars ishlanmasi, tarqatma materiallar, slaydlar, plakatlar
O'qitish shakli	Ommaviy.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter bilan jihozlangan sinf xonasi.

Dars mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqich (vaqt)	Faoliyat mazmini	
	O'qituvchi	O'quvchi
1. Kirish (5 daqiqa)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotlaridan kutilayotgan natijalarni tushuntiradi.	1.1. Eshitadi va yozib oladi.
2. Asosiy (35 daqiqa)	2.1. O'quvchilar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi: 1. Kasblar to'g'risida nimalarni bilasiz? 2. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli nimada? 3. Kasb tanlashda qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar qanday rol o'ynaydi? 4. Qobiliyatlarning qanday turlari bor? 5. Qobiliyat o'rnini qanday qoplash mumkin?	2.1. Eshitadi, "1-plakat. Qobiliyat" va "2-plakat. Maxsus qobiliyatning yetakchi xossalari" plakatlaridan foydalangan holda berilgan savollarga javob beradi.
	2.2.1. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda dars mashg'ulotida	2.2. Tinglaydi, yozib oladi.

	bajariladigan vazifa bo'yicha nazariy ma'lumotlarni bayon etishda davom etadi: 1. Kasb tanlashda asosiy shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish. 2. Kasb tanlashda onglilik. 3. Kasb tanlashda mustaqillik. 4. Kasb tanlashda katta yoshlilar bilan maslahatlashish. 5. Mehnat faoliyati davomida bilimni takomillashtirish va qobiliyatni rivojlantirib borishga ehtiyoj. Mavzuni tushuntirishda "Iqtisodiyot tarmoqlari" nomli 3-plakat va "Ijtimoiy soha kasb faoliyati strukturasi" nomli 4-plakatlardan foydalanadi. O'quvchilar e'tiborini "odam-odam" kasb tiplariga qaratadi.	
	2.3. O'quvchilarning bilimni faollashtirish va mustahkamlash maqsadida ularni uch guruhchaga ajratadi va ularga tarqatma materiallar beradi hamda ularni klaster usulida tartiblashtirishni vazifa qilib beradi.	2.3. Tarqatma materiallarni tartiblashtiradi va izohlaydi.
3. Yakuniy (5 daqiqa)	3.1. Dars mashg'ulotiga yakun yasaydi va o'quvchilar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.	3.1. Eshitadi.
	3.2. Faol qatnashgan o'quvchilarni ta'kidlab o'tadi va rag'batlantiradi.	
	3.3. O'quvchilarni baholaydi.	
	3.4. Mustaqil ish uchun vazifalar beradi. Uyga vazifa: -dars mashg'ulotida o'rganilgan mavzuni o'zlashtirish; -, „Odam-odam“ tipi kasblariga misollar topish va ularni izohlash.	3.4. Topshiriqlarni yozib oladi.
	3.5. Mashg'ulotni yakunlaydi.	

Dars mavzusi matni

Mavzu: Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik.

Reja:

1. Kasb tanlashda asosiy shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish.
2. Kasb tanlashdagi onglilik.

3. Kasb tanlashdagi mustaqillik.
4. Kasb tanlashda katta yoshlilar bilan maslahatlashish.
5. Mehnat faoliyati davomida bilimni takomillashtirish va qobiliyatni rivojlantirib borishga ehtiyoj.

Ta'limiy maqsad:

- o'quvchilarda kasb tanlashda asosiy shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish to'g'risida ma'lumotlar berish;
- kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik haqida tushunchalar berish;
- mehnat faoliyati davomida bilimni takomillashtirish va qobiliyatni rivojlantirib borishga ehtiyoj to'g'risida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad:

- o'quvchilarda mehnat kishilariga hurmat, kasblarga qiziqish tuyg'ularini shakllantirish;
- o'quvchilarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- turli kasb kishilarining har xil sharoitda ishlashini anglab yetish;
- kasb tanlashni katta yoshdagilardan maslahat olgan holda va ongli, mustaqil ravishda hal etishga intilish.

Pedagogik vazifalar:

- o'quvchilarga shart-sharoitlar va vaziyatlarni e'tiborga olgan holda kasb tanlash lozimligini uqdirish;
- kasb tanlashga ongli va mustaqil yondoshish zarurligini uqdirish.

O'quv faoliyatining natijalari:

- mazkur darsdan so'ng o'quvchi kasb tanlashda asosiy shart-sharoitlarni e'tiborga olish kerakligini bilib oladi;
- kasb tanlashda katta yoshlilar bilan maslahatlashish kerakligini tushunib yetadi;
- kasb tanlashga ongli va mustaqil yondoshish kerakligini bilib oladi;

-mehnat faoliyati davomida kishi o'z bilimini takomillashtirib borishi va qobiliyatini rivojlantirib borishi kerakligini anglab yetadi.

O'qitish uslubi va texnologiyasi:

Vizual amaliy mashg'ulot, test–so'rov, klaster, muammoli vaziyat va ATdan foydalaniladi.

O'qitish vositalari:

-dars mashg'uloti ihtilasi, tarqatma materiallar, plakatlar, slaydlar.

O'qitish shakli:

-ommaviy va guruhchalar bilan ishlash.

O'qitish shart-sharoiti:

-kompyuter bilan jihozlangan sinf xonasi.

Darsning tashkiliy qismi.

O'qituvchi sinf xonasiga kiradi va o'quvchilar bilan salomlashadi. O'quvchilarning maktab axloq-odob qoidalariga mos holdagi ko'rinishlari va sinf xonasining dars mashg'ulotiga tayyorlik darajasini ko'zdan kechiradi, navbatchini aniqlaydi. O'quvchilarni yo'qlama qiladi. O'quv jurnalini rasmiylashtiradi.

O'quvchilar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash maqsadida "Aqliy hujum" vaziyatini yuzaga keltiriladi va quyidagi savollarni galma-gal berib boriladi:

1. Kasblar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli nimada?
3. Kasb tanlashda qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar qanday rol o'ynaydi?
4. Qobiliyatlarning qanday turlari bor?
5. Qobiliyat o'rnini qanday qoplash mumkin?

Yuqoridagi savol-javoblarda "1-plakat. Qobiliyat", "2-plakat. Maxsus qobiliyatning yetakchi xossalari" lardan foydalaniladi.

Har bir savol bo'yicha o'quvchilarning javoblari tahlil etiladi, to'g'ri deb topilgan javoblar aniqlanadi, faol qatnashgan o'quvchilar ta'kidlab o'tiladi.

O'tilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlar umumlashtiriladi.

O'qituvchi yangi mavzuni bayon etadi.

Inson mustaqil hayotga qadam qo'yar ekan, ongli va mustaqil holda kasb tanlashi kerak. Bunda iqtisodiy hudud, kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, tanlanayotgan kasb talablariga insonning qiziqishi, mayllari, qobiliyati, sog'ligining mos kelishi, tayinli mehnat sohasida o'rttirilgan tajribasi, mehnat sharoiti kabi muhim omillar hisobga olinishi asosidagina kasbni ongli ravishda tanlangan deb hisoblash mumkin. Mehnat sharoitlari tasniflagichining mazmun-mohiyati o'quvchilarga tushuntirib beriladi.

Inson to'la dahlsiz holda va o'zining tashabbusi bilan kasb tanlashi lozim. Bunda o'z kasbini yaxshi biladigan, tajribali kasb kishilari, mehnat fahriylarining maslahatlariga amal qilish zarur bo'ladi. Birinchi galda ota-onadan maslahat olish darkor. Kasb tanlayotgan odam har tomonlama o'ylab ko'rishi, barcha fikrlarni tahlil etishi va shoshma-shosharlikka berilmasdan o'z oldidagi hayotiy muhim masalani hal etishi kerak.

Birinchi galda odam o'z ichki imkoniyatlarini, qiziqishi, qobiliyati va irodaviy sifatlarini baholay olishi zarur. Bu juda muhim jarayon. Uni hal etishda o'quvchilar qiynalib qolishlari mumkin. Maktab pedagogik jamoasi, fan o'qituvchilari, sinf rahbari o'quvchilarga bu holatda yordam berishlari kerak. Bunda o'quvchilarga yordam sifatida "Iqtisodiyot tarmoqlari" nomli 3-plakatdan foydalanib kasbiy targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish yaxshi natija beradi.

Ongli ravishda kasb tanlash odamning o'z imkoniyatlari va jamiyatning ehtiyojlariga moslik bo'lganda yaxshi natija beradi. O'quvchi tanlayotgan kasbining kelajakdagi istiqbollari ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

"Odam-odam" tipi kasblari jamiyatda keng tarqalgan kasblardan hisoblanadi. Bunday kasbni egallagan kishi qayerda yashashidan qat'iy nazar har doim ish bilan ta'minlanishi mumkin. Shu o'rinda "odam-odam" kasb tiplari haqida kengroq ma'lumot beriladi. Biz o'quvchilarni ushbu kasblarga qiziqtirishimizda "Ijtimoiy soha kasb faoliyati strukturasi" nomli 4-plakatlardan foydalanish ish samarasini oshirishga olib keladi.

Ta'lim tizimida so'nggi davrda yuksak ma'naviyatli, malakali va raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda. Umumta'lim maktablarini ana shunday sifatli kadrlar bilan taminlamay turib ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalarni hal etib bo'lmaydi. 60% dan ortiq aholisini yoshlar tashkil etgan mamlakatimizda yosh avlodni hayotga tayyorlash, kasbga yo'naltirishda o'qituvchi kadrlarning zahmatli mehnati beqiyosdir.

O'qituvchi avvalo o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi kerak, bundan tashqari o'quvchilarga o'z bilimlarini yerkaza olishi kerak. Shundagina o'zi ko'zlagan maqsadiga erisha oladi. O'qituvchilik kasbi boshqa kasblardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan til topisha olishi, ta'lim texnologiyasidagi barcha metodlardan uddaburonlik bilan foydalana olishi, o'z kasbi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishi va o'z ustida ishlash qobiliyati ustun bo'lishi kerak. O'qituvchi faoliyatining samarasi uning mahorati va bilimiga bog'liq.

Shuning uchun mehnat ta'limi dars jarayonida o'quvchilarni "odam-odam" tipi kasblariga, xususan, o'qituvchilik kasblariga qiziqitirsa va yo'naltirsa kelajagi buyuk davlatni qurishga yanada ko'proq xissa qo'shgan bo'lamiz, deb o'ylaymiz.

Kishi qaysi kasbni egallashidan qat'iy nazar, o'z hayoti davomida kasbiy bilim va malakalarini yangilashiga to'g'ri keladi. Buning uchun o'rta umumta'lim maktabida o'rta ma'lumotni mustahkam va to'kis egallashi kerak. Bunday bilim bagaji har qanday kasbiy faoliyatning negizi hisoblanadi. Bilimsiz odam hech qachon kasbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni o'zida rivojlantira olmaydi, kasbiy mahoratini o'stira olmaydi, zarurat tug'ilganda faoliyat sohasini o'zgartira olmaydi.

Unda har bir guruhchalarga tarqatma materiallar tarqatilib "odam-odam" tipi kasblariga kiruvchi kasblarni tartiblashtirish va kasb nomlari, ularning xususiyatlari hamda boshqalarni vazifa qilib beriladi.

So'ng qaysi guruhcha o'quvchilari topshiriqni to'g'ri bajara olgan bo'lsa, ularni ma'naviy rag'batlantiriladi.

O'quvchilarning "odam-odam" tipidagi kasblar to'g'risidagi bilimni faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarni berish mumkin:

1. "Odam-odam" tipi kasblariga misollar keltiring?
2. "Odam-odam" tipidagi qaysi kasblar sizga yoqadi?

Dars mashg'ulotiga yakun yasaydi va o'quvchilar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faollik darajasiga qarab o'quvchilarni rag'batlantiradi. O'quvchilarni baholaydi. Mustaqil ish uchun uyga vazifa qilib quyidagilarni topshiradi:

Uyga vazifa:

- dars mashg'ulotida o'rganilgan mavzuni o'zlashtirish;
- ,odam-odam" tipi kasblariga misollar topish va ularni izohlash.

Mavzuga oid testlar.

Testlarga qo'shimcha qilish kerak!

1. Kasb tanlashda qaysi jihat hisobga olinmaydi?
 - a) kadrlarga bo'lgan ehtiyoj;
 - b) kishining qiziqishi;
 - *c) yo'lning serqatnovligi;
 - d) kishining sog'ligi;
 - e) mehnat sharoiti.
2. Kasb tanlashda kimlarning maslahatiga quloq solish kerak emas?
 - a) ota-onaga;
 - b) o'qituvchilarga;
 - c) tajribali kishilarga;
 - *d) folbinga;
 - e) sinf rahbariga.
3. Kasb tanlashda nima qilmaslik kerak?
 - a) maslahatlarga quloq solish;
 - b) dono fikrlarni qabul qilish;
 - *c) shoshilib xulosa chiqarish;
 - d) bilim cho'qqilarini egallash;

e) dars mashg'ulotlariga qatnashish.

4. O'qituvchilar o'quvchining qaysi jihatlari haqida fikr bildirishi mumkin?

a) xulq-atvor;

b) qiziqish;

c) mayl;

d) qobiliyat;

*e) barcha javoblar to'g'ri.

5. Kasb tanlayotgan kishi o'zidagi imkoniyatlarni nima bilan taqqoslab ko'rishi kerak?

a) jamiyat ehtiyojlari;

b) axloqiy prinsiplari;

c) xalq ho'jaligining sotsial-iqtisodiy rivojlanishi;

d) yangi kasblarning paydo bo'layotgani;

*e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Mamlakatimizda o'qituvchilar va murabbiylar bayrami qachon nishonlanadi?

a) 1-sentabr;

*b) 1-oktabr;

c) 1- mart;

d) 1- noyabr;

e) 1- dekabr.

7. O'qituvchiga xos bo'lgan asosiy sifatlarni sanab bering.

a) bolalarni o'qita bilish, o'qitish uslublarini bilish;

b) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, tashkilotchilik;

c) ota-onalar bilan ishlay olish, bolalarning ruxiy holatini bilish;

d) ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bora olish;

*e) hamma javoblar to'g'ri.

8. Shifokorning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

a) shirin so'zli bo'lish;

b) qo'li yengil bo'lish;

c) o'z kasbini mukammal bilish;

d) bemorlarga to'g'ri tashxis qo'ya olish;

*e) hamma javoblar to'g'ri.

9. Styuardessa qaysi kasb tipiga kiradi?

a) "odam-tabiati",

b) "odam-tehnika",

*c) "odam-odam",

d) "odam-belgilar tizimi",

e) "odam-badiiy obraz".

10. O'quvchilarning kasb tanlashlariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

- a) umumta'lim maktablarida berilayotgan ta'lim darajasidagi bilimlarga ega bo'lish;
- b) kasb tushunchasining ta'rifi, uning tabiatini, xususiyatlarini, sonini va turlarini bilish;
- c) kasbning inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida tasaavvurga ega bo'lish;
- d) kasb tanlash uchun idrok etilgan xohishning mavjudligi;
- e) *hamma javoblar to'g'ri.

III- bob. Pedagogik tajriba sinov ishlarivaularni tashkil etish va taxlili

3.1.Tajriba – sinov ishlarini tashkil etish.

Tajriba –sinov ishlari olib borish jarayonida asosiy e'tibor tadqiq etilayotgan muammoning amaliy jihatlariga qaratilishini zarurligini ta'kidlab o'tiladi. Pedagogik jarayon ta'lim beruvchi (o'qituvchi) hamda ta'lim oluvchi (o'quvchi)lar o'rtasida yo'zaga keluvchi va o'zida didaktik hamda ta'limiy xususityalarni namoyon etuvchi amaliy faoliyat mazmunini yoritadi. Nazariy pedaogik g'oyalar bevosita amaliyotda ta'lim va tarbiyaviy jarayon mohiyatini o'rganish, tahlil etish hamda umumlashtirish asosida qaror topadi. SHu bois, ilmiy pedagogik tadqiqot jarayonida tajriba sinov ishlarini tashkil etish, ushbu jarayonning asosiy o'zagi sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan muammo doirasida tashkil etilayotgan tajriba – sinov ishlarining puxta ishlab chiqilgan dastur asosida olib borilishi, avvalo, ushbu muammoni ijobiy yechimga ega bo'lishini, bu boradagi nazariy g'oyalarning ilmiy jihatdan asoslanishini, shunigdek, ularning haqqoniy bo'lishini ta'minlaydi.

Tajriba – sinov ishlarini tashkil etishda:

- o'quvchilarning dars jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish haqida nazariy tushunchalarni;
- mehnat ta'limida o'quvchilarni texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish darslarini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lash;
- o'quvchilarda o'quv materialini o'zlashtirishga doir ko'nikmalarni shakllanishiga erishish;
- har bir mavzuni o'zlashtirish maqsadida uni tahlil qilish;

- mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish darslari samaradorligini oshirishda ta'lim jarayonida noan'anaviy usullarni sinovdan o'tkazish;
- o'tkazilgan tajriba – sinov ishlarini natijalarini matematik-statistik metod yordamida tahlil etish vazifalarini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ishda olingan natijalarning ishonchlilik darajasi pedaogik tajriba-sinov yo'li bilan aniqlangan va ikki qismdan iborat pedaogik tajriba-sinovning mohiyati keltirilgan. Pedaogik tajriba-sinovning birinchi qismi izlanish tavsifiga ega bo'lib, bitiruv malaka ishida hal qilinadigan masalalarni aniqlash maqsadida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish jarayonining mohiyati ochib beriladi. Pedagogik tajriba-sinov mohiyati va natijalari bitiruv malaka ishi ishining boblarida batavsil bayon qilingan.

Bajarilgan izlanish tavsifidagi pedagogik tajriba-sinov hamda bir qancha ma'lumotlarning boshqa manbalari, xususan, tegishli adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish jarayonini boshqarish, takomillashtirish hamda mehnat ta'limini o'rgatish jarayonida uni amaliyotga tadbiq etish lozim.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqot uchun bilimlarini nazorat qilish sur'atlarini kuchaytiruvchi metodlar tanlandi. Mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitishni hayotga samarali tadbiq etishga erishish uchun mehnat ta'limi fani mazmunini amaliy ahamiyatga ega bo'lgan savol va topshiriqlar bilan to'ldirish, boyitish masalasini tadqiq etish maqbul topildi.

Mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedaogik ko'zatish;
- savo-javob;

- suhbat;
- pedagogik tajriba;
- matematik-statistik tahlil;

Tadqiqot ishi yo`zasidan tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- tajriba-sinov ishlarini o`tkazishda tashkiliy tayyorgarlik bosqichi;
- tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun tayyorlangan metodikani sinovdan o`tkazish bosqichi;
- tajriba-sinov ishlarini keng ko`lamda amalga oshirish;
- tajriba-sinov ishlarini tahlil etish bosqichi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda matematik statistika metodlari qo`llanildi.

Statistikaning induktiv metodlarini qo`llash, tadqiqot natijalarining ishonchliligi yoki ishonchsizligini isbotlanishi ta`minlashga imkon yaratadi. SHu sababli statistik metodning qo`llanilishi izlanish tavsifidagi tadqiqot ko`lamini o`zgartirmaydi.

Pedagogik tajriba-sinovning ikkinchi qismida matematik statistika metodlari asosida tadqiqotning ishonchliligi ko`rsatilgan bo`lib, izlanish tavsifidagi ishning ayrim qismlarigina keltirilgan.

3.2.Tajriba-sinov ishlarining natijalari.

Belgilangan vazifalar:

- 1.Pedagogik tajriba-sinovlarni qo`yish va o`tkazish.
- 2.Tushunchalarni rivojlanganlik (chuqurlashganlik) darajasini aniqlash.
- 3.Tajriba-sinov natijalari bo`yicha statistik tahli va xulosalar.

Tajriba sinov ishlari 2016 yil davomida Namangan viloyati Namangan shaxar 12-umumta`lim maktab o`quvchilari tanlandi. Tajriba sinovlarida 24 ta va nazorat guruhida 32 ta o`quvchilar ishtirok etdilar.

Pedagogik tajriba-sinovlarida ko'zlangan maqsad, o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda yangi pedaogik texnologiyalardan foydalanish, o'qitish jarayonida o'quv faoliyatini rivojlantirishga, ularni fikrlash jarayonini o'sishiga ko'maklashishni aniqlashdan va mustaqil o'quv faoliyat malakalarini rivojlantirishni ta'minlay olishni tekshirib ko'rishdan iborat.

Xususan, mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish darslarini to'g'ri yo'lga qo'ya olish: o'rganilayotgan har bir materialni mohiyati, ahamiyatini anglash: tushunchalarni o'rganishda yangi pedaogik texnologiyalarni qo'llash, mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirish, ta'lim va tarbiya o'rtasidagi bog'lanishlarni qilishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish bilan bog'liq ma'lumotlar to'plash, o'tkazilgan tajriba ishlarini tahlil qilish va o'rganishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlanganidek, aosiy maqsad mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish darslari samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonida bir xillikdan qochish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, ularning ilmiy tafakkur va izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam va darajasini aniqlashdan iborat edi. Natijada mehnat ta'limida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish darslari samaradorligini oshirish bo'yicha taklif etilayotgan yangi usul o'quvchilarni zarur nazariy bilimlar bilan ta'minlanganligi ayon bo'ldi.

Tajriba ob'yektlarda guruhlar "Tajriba" guruhlariga, ya'ni darslarning samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim yangi pedaogik texnologiyalar asosida olib borildi, "Nazorat" guruhlarida esa darslar an'anaviy tarzda o'tkazildi.

Tajriba o'tkazish jarayonida o'quvchilardan testlar olish, savol-javoblar ko'rinishida olib borildi. O'tkazilgan tajriba, tekshirish va ko'zatishlar natijalarini matematik statistika usullari bilan tekshirish va tahlil qilish ishonchli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlari uchun bunday usullar yetarli darajada ishlab chiqilgan.

Pedagogik tadqiqotlar uchun shu narsa muhimki, bunda qo'llaniladigan vositalarning samaradorligi muayyan bir guruh ob'yektlarning (o'quvchilar guruhi) ma'lum bir vaqt ichida erishgan yutuqlari yoki xulosalarni taqqoslash asosida tekshiriladi.

Tajriba ob'yektlari guruhlar "Tajriba" guruhlarida texnologik bilim va ko'nikmalar ta'limi darslarini samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanildi, "Nazorat" guruhlarda esa an'anaviy tarzda o'tkazildi.

O'quvchilar bilimining chuqurligi va mustahkamligi darajasini tahlil qilish, ularning og'zaki javoblarini uchta kategoriyaga ajratilgan holda o'tkazildi.

1. To'la va to'g'ri javoblar (TTJ)
2. To'g'ri, ammo, to'la bo'lmagan javoblar (TTBJ)
3. Noto'g'ri javoblar (NT)

SHuningdek, yozma nazorat ishlari o'tkazildi.

Pedagogik tadqiqot ishida taklif etiladigan usullarning yoki yangiliklarni samaradorligini tekshirish, shu farazning haqiqiylikini tekshirishda Kolmogorov – Smirnov kriteriysidan foydalanildi.

Misol sifatida tajriba guruhida o'tkazilgan yozma nazorat shu natijalarni keltiramiz. Tajriba va nazorat guruhlarining o'quvchilariga har birida 10 tadan savollari bo'lgan variantlardan iborat testlar berildi.

Variantlar tematik tamoyillarga asoslangan. Ta'lim-tarbiya bog'liqliklarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Jadvalning har bir satrida va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarni bilim va ko'nikmalari shakllanish darajasi ko'rsatilgan.

guruhlar bo'yicha tajriba savollarini yechish natijalari

1-jadval.

guruhlar	Savollarning tartib raqami va ularni to'g'ri bajargan o'quvchilar soni																			
Savollarning tartib raqami	20	19	18	17	16	15	14	13	12	11	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
Tajriba guruhi	21	24	24	20	15	15	12	11	10	8	7	7	5	5	4	4	3	2	2	1
Nazorat guruhi	11	13	10	15	15	19	16	16	13	8	8	9	6	6	8	7	7	5	4	3


Har bir o'quvchi 11 ta va undan ko'p topshiriqlarni bajargan bo'lsalar, bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, aks holda 10 ta va undan kam topshiriqlarni bajargan bo'lsalar, bilim va malakalarga yetarli darajada ega bo'lmagan deb hisoblaymiz.

1-jadval asosida tajriba va nazorat guruhlarida bo'yicha ko'nikma va malakalarini egallagan va egallanmagan o'quvchilar sonini aniqlaymiz, shuningdek tajriba va nazorat guruhlarida o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlarning umumiy sonini aniqlaymiz. (2-jadval).

2-jadvaldagi ma'lumotlar asosida quyidagi (N_0) gipotezani tekshiramiz:

- o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori darajada bo'ladi. guruhlar bo'yicha o'quvchilarni bilim va ko'nikmalari haqidagi tajribalar natijalari.

Quyidagi o'tkazilgan tajriba- sinov natijalarini tajriba va nazorat guruhlaridagi taqqoslash diagrammalari keltirilgan.



Tajriba guruhida 14 nafar o'quvchi 4 va 5 baho bilan, 10 nafar o'quvchi esa 3 baho bilan baholandi. Nazorat guruhida 13 nafar o'quvchi 4 va 5 baho bilan, 19 nafar o'quvchi esa 3 baho bilan baholandi.

Tajriba guruhida 82% 4 va 5 baholar, 18 % 3 baholarni tashkil etadi.

Nazorat guruhida 67% 4 va 5 baholar, 33 % 3 baholarni tashkil etadi.

O'rtacha farq 15 % ni tashkil etadi. Farqning 15-25 % oralig'ida bo'lishi eng oqilona ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Demak, yuqorida olib borilgan statistik tahlillardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologik bilim va ko'nikmalar ta'limi darslari samaradorligini oshirishda o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar hosil qilish bo'yicha qo'llanilgan sinov metodikasi samarali bo'lib, o'quvchilar o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir etadi, ularda texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitishga tanlangan materiallar chuqurroq qiziqishni uyg'otar ekan.

Diagrammalardan ko'rinadiki, o'quvchilarning tajriba guruhlarida o'zlashtirishi nazorat guruhlariga qaraganda 17% nazorat guruhda esa 15% ko'pligini ko'rish mumkin.

X U L O S A

Mehnat ta'limi darslarida "Kasblar tasnifini, Kasblarda mehnat turlarining ta'rifi" ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishning metodik asoslari samaradorligini oshirishning tashkiliy pedagogik jihatlarini tikuvchilikka oid mavzular bilan uyg'unlashtirib o'tish jarayonida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitishning mazmuni va mashg'ulotlarni o'tkazish ko'rib chiqildi. SHu narsa aniqlandiki, mehnat ta'limi sharoitida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish, kasb tanlashda onglilik va mustaqillik, kasblar haqida ularga tushunchalar berish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni mashg'ulot jarayoniga qo'llash orqali texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish ishlarida yuqori samaradorlikka erishish imkonini berar ekan.

O'z navbatida bu ishlar o'quv jarayonini faollashtirish, o'quvchilarni mustaqilligi, faolligi va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga imkon beradi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mehnat ta'limi jarayoni mashg'ulotlarida kasb tanlashda onglilik va mustaqillik, kasblar va texnologik bilim va ko'nikmalarlarning hususiyatlarini jamoa bo'lib muhokama qilish, turli yordamchi materiallardan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish samarali hisoblanadi.

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik, texnolog, konstruktor, tadbirkorlik kasblarining odamlarga qo'yadigan talablari, kasbga yaroqlilik ko'rsatkichlaridan foydalanish, kasb elementlarini egallash ishlarini takomillashtirish, qisqa vaqt ichida qobiliyatiga mos kasbni elementlarini va texnologik bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirish kabi vazifalarni bajarish, o'z fikr mulohazasiga ko'ra kasb egalarining tajribalaridan foydalanish texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish ishlari samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. SHuningdek mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quv maqsadlari

uchun foydalaniladigan didaktik materiallarni rivojlanishga asos bo'ladi deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlarida kasblarga oid o'quv materiallarini uyg'unlashtirib o'tish bilan o'quvchilarning texnologik bilim va ko'nikmalar egallash bilan bog'liq faoliyati motivlarini yuzaga keltirish, texnolog, konstruktor, tadbirkor kasblari bilan bog'liq insonlar faoliyatiga ijodiy munosabatlarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Asosiy ko'rsatkich sifatida o'quvchilarni faolligi, mustaqilligi va mashg'ulotlaridagi texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitishga bo'lgan ishtiyoqni o'sish darajasi dinamikasi monitoringini qabul qilinadi.

Ongli ravishda kasb tanlashni o'quvchilar o'rganishlariga bo'lgan intilishlarini o'sishi munosabati bilan namoyon bo'ladigan ularning faoliyatini shakllantirishda asosiy vosita sifatida, mehnat ta'limi mashg'ulotlarida, interaktiv usullar qo'llanilgan ishlar sharoitida, turli uslub va metodlarini qo'llashni qabul qilindi.

Mehnat ta'limida bunday mashg'ulotlarni tashkil etish va uni amalga oshirish bilim, ko'nikma va malakalarni yangi sharoitga ko'chirishni talab etibgina qolmay, balki o'quvchilarni texnologik bilim va ko'nikmalar egallash masalasiga ongli yondoshishlarini ham taqozo qiladi.

Bitiruv malaka ishi natijasida mehnat ta'limi jarayoni mashg'ulotlarini o'quvchilarga kasblar olamini tanishtirish ishlari bilan uyg'unlashtirib o'tish, o'quvchilarni qobiliyatlariga mos va jamiyat ehtiyojiga, shuningdek o'quvchilar yashaydigan xududda mavjud kollejlarda kichik mutaxassislar tayyorlash sharoitida texnologik bilim va ko'nikmalar faoliyatiga kirishishning samarali tomonlari ham aniqlandi.

Bu asosan, mehnat ta'limda umumta'lim maktabi o'quvchilarining texnologik bilim va ko'nikmalarga yo'naltirish mazmunini o'zlashtirish samaradorligini oshishi, o'quvchilar faolligini, mustaqilligini va ularda ongli

ravishda tikuvchilik kasbini egallashning namoyon bo'lishini kuzatilishi bilan tavsiflanadi.

Mehnat ta'limi darslarida "Kasblar tasnifini, Kasblarda mehnat turlarining ta'rifi" ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish mashg'ulotlarida o'quvchilarning amaliy ishlarini egallash ishlari bilan uyg'unlashtirib o'tish muammosi bizning ishimiz tadqiqotlarimizning yo'nalishlaridan birini tashkil etib, o'quv jarayonida o'quvchilarni texnologik bilim va ko'nikmalarga yo'naltiruvchi motivlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va o'zaro bog'lanishni ochishga yordam beradi.

O'quv jarayonida o'quvchilarning kasb soxalarini o'rganish va olingan natijalar asosida ularni kasblar olami bilan tanishtirish, texnologik bilim va ko'nikmalar egallashni mehnat ta'limi tikuvchilik mavzulari bilan uyg'unlashtirib o'tish, o'quvchilarni bozor munosabatlari talablari bilan tanishtirish, avvalgi olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga yordam beribgina qolmay, balki ularni bo'lg'usi tikuvchilik kasbiga qiziqish darajasini kengaytiradi.

Tavsiya etilayotgan mehnat ta'limi darslarida "Kasblar tasnifini, Kasblarda mehnat turlarining ta'rifi" ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish mashg'ulotlari, o'quv jarayonini faollashtirish, o'quvchilarni asta-sekin faolligi va mustaqilligini shakllantirish va o'stirishiga yordam beradi.

Mehnat ta'limi bakalavrlarini tayyorlash uchun mehnat ta'limi uchun davlat ta'lim standartlarida berilgan mashg'ulotlar jarayonida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish mazmuni amaliy mashg'ulotlardagi o'quvchilarning texnologik bilim va ko'nikmalar egallash faoliyati jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish (reproduktiv) va ijodiy (produktiv) faoliyatlarini ma'lum darajada qo'shib olib borish imkoniyatini beradi.

SHuning uchun o'quvchilarni mustaqilligi, faolligi va amaliy mashg'ulotlarda texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish jarayonida o'quvchilarning ongli munosabatlarini namoyon bo'lishi doimo bosqichdan-bosqichga o'tishda o'sib boradi, degan xulosa chiqadi.

O'quvchilariga kasb tanlashni o'rgatish mashg'ulotlari jarayonida ularning texnologik bilim va ko'nikmalarini egallashlarini tashkil etishda, tikuvchilik kasbi bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarlar haqida ma'lumotlar berish bilan uyg'unlashtirib o'tish natijasida texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitishga ongli munosabatlarini o'sishini baholandi.

Ish davomida, mashg'ulotlarni o'quvchilarning texnologik bilim va ko'nikmalar egallash faoliyati bilan uyg'unlashtirish elementlaridan foydalanilganda o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllanishiga doir tavsiyalar beriladi.

a) mashg'ulotlar jarayonida quyidagilarga e'tibor beriladi: tanlangan amaliy mashg'ulotning o'quvchi qobiliyatiga, salomatligiga, jamiyatning ehtiyojiga, texnologik bilim va ko'nikmalarga egallash imkoniyatlariga va o'quv muassasasining imkoniyatlariga;

v) mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarning texnologik bilim va ko'nikmalar egallash ishlarini tashkil etish uchun o'quv-uslubiy materiallar bazasining yaratilganligiga, birinchi navbatda uning didaktik talablarga, o'quvchilarni yosh xususiyati va qiziqishini hisobga olish lozim bo'ladi;

g) har bir mashg'ulot davomida o'quvchilarni bilim ko'nikma va malakasini reyting usulida nazorat qilish bilan birga faoliyatlariga, ya'ni mashg'ulotlar jarayonidagi, texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish ishlarini bajarishdagi va mehnat ta'limi mashg'ulotlari materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan munosabatlariga baho berib borish lozim.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktabi mehnat ta'limining texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish mashg'ulotlarida qo'llaniladigan mazmun mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashni o'rgatishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. SHuningdek o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etishga yaqindan yordam beradi. Natijada o'quv jarayonini samaradorligini oshirish, o'quvchilarning tikuvchilik kasblari olami haqidagi tafakkurlarini, bilim

darajalarini kengaytirish imkoni tug'iladi. O'quvchilarning nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini har qanday sharoitda qo'llay oladigan, raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishiga imkon yaratadi.

Tanlagan kasbi topshiriqlariga oid ishni mustaqil bajara oladigan kishilarga hurmat bilan qaraydigan komil insonni yetishtirishga mehnat ta'limining texnologiya va dizayn yo'nalishi kasb tanlashga yo'llash bo'limini 8-sinfda o'qitish mashg'ulotlari yordam beradi. Yoshlarni, kelajakda o'zlariga o'xshagan insonlarning yaratgan mahsuliga hurmat va mas'uliyat bilan qaraydigan, ongli, yuqori nazariy va amaliy bilimga ega bo'lgan inson bo'lib tarbiyalanishiga asos bo'ladi.

Bitiruv malaka ishi materiallariga mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilariga kasb tanlashni o'rgatishda, raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalash ishlarida, umumta'lim muassasalarida o'quvchilarga texnologik bilim va ko'nikmalar berish ishlarida foydalaniladigan didaktik vositalardan biri sifatida qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'qrisida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". Toshkent. 1997 yil. 29 avgust.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi.-T:O'zbekiston, 2013-yil
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. “Xalq so'zi” 30 yanvar 2010 yil 21 son.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir “Xalq so'zi” 28 yanvar 2010 yil 19 son.
5. Karimov I.A O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga. “O'zbekiston ovozi” gazetasi, 2013-yil 30-sentabr
6. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisidagi ma'ruza: Halq so'zi 2006 yil 25 fevral.
7. Karimov I.A. Barcha reja va dasturimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2011 yil 22 yanvar.
- 8.O'zbekiston Respublikasi halq ta'limi Vazirligining 153-sonli "O'zbekiston Respublikasida O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'qrisida"gi buyruqi. 2002 yil. 10-oktyabr.
- 9.Mavlonov R., Turaeva O., Xolberdiev K.. "Fan o'qituvchisiika"-T.: O'qituvchi, 2001.
- 10.Sayidaxmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. T.: YAngi asr avlodi.2001.- 40 b.

11. А.И.Воробев, С.А.Лиманский, И.Ф.Каримов. Меҳнат таълими. 8-9-синф дарслиги. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1992.

12. J. Ramizov, H.Hamidov. Mehnat ta’limi. 8-sinf uchun sinov darsligi. Toshkent. “O’qituvchi”. 1998.

13.Olimov K.,T., O’zoarva L.P., Jalolova D.F. Kasb-hunar ta’limida amaliy ko’nikmalarni o’rganish bosqichlari. "Kasbiy ta’lim muammolari" respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. - Samarkand; 2003y. 72-6.

14.Olimov K.,T., Avliyoqulov N.X. Muammoli o’qitish texnologiyasi, "Kasbiy ta’lim muammolari" respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi materiallari. -Samarkand: 2003. - 73-6.

15.Авозбоева О.И, Р.Г.Исянов Х. Одилбоев. Касб таълими услубидан амалий ва лаборатория машғулоти. Т., ТДПУ 1995 й.

16. Nugmanov D.L. Kasb tanlashga yo’llash fanidan o’quv-uslubiy majmua., NamDU, Namangan, 2008yil

17. Yormatov G.E.“Hayot faoliyat xavfsizligi” T.: 2003.

18. Abduraxmonov Q.X., Tohirova X.T.,Bobonov N.X. Hayot faoliyat xavfsizligi. O’quv qo’llanma. Toshkent 2007 yil

19. Nurmatov M.SH. Xasanova SH.T Ustaxonada amaliy mashg’ulot. Toshkent, 2010 yil.

20. Muslimov I.A., Boltaboev S.A., Sharipov Sh. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi. Kasb ta’limi yo’nalishi magistrantlari uchun qo’llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2003 yil.

1. <http://www.ZiyoNet.uz>
2. www.oborudovaniederevo.ru
3. www.instrument.ru